


2

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI



Ro‘yxatga olindi: № BD 60211500-1.10

202 ___ yil “ ___ ” _____

KVARTET SINFI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: *200 000 - San‘at va gumanitar fanlar*

Ta‘lim sohasi: *210 000 - San‘at*

Ta‘lim sohasi: *60211500 - Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular*

TOSHKENT – 2025

Fan/modul kodi KVS1511	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 4-8	ECTS-Kreditlar 11	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kvartet sinfi	150	180	330
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>O‘zbekiston va chet el musiqachilarining kvartet ijrochiligi ko‘nikmalari tarbiyasi ketma-ketligi oxirgi paytda aloxida talab qo‘yilmoqda, har xil yo‘nalishlar tushunchasiga ahamiyat berib va boy adabiyotni o‘z ichiga olgan xolda, o‘rganilayotgan dastur har tomonlama o‘ylangan bo‘lishi asosiy maqsadlardan biridir. Chunki bugungi kundagi kvartet musiqasining yangi opus(nashr)lari, O‘zbekiston bastakorlarining asarlari, klassik durdonalar va XX asrning ko‘pchilik asarlariga qo‘shilib o‘rganilmokda.</p> <p>Fanni o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir Talaba kvartet sinfi tarkibiga kiruvchi cholg‘u asboblarning xususiyatlarini yaxshi bilishi, shuningdek ularning tuzilmalari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Kvartet sinfida ijro dasturini tanlash va uning o‘zlashtirish jarayoni katta ahamiyatga egadir.</p> <p><i>Izoh: kvartet sinfi oldiga qo‘yiladigan masala bu bo‘lajak kontsert- ijrochilik faoliyatiga tayyorlashdir, jamoaviy ijrochilik malakalari shakllanadi. Kvartet jamoaviy ijrochilik bo‘lganligi uchun, kvartet sinfining amaliy darslarida bakalavriat talabalarining hammasi ishtirok etadilar (2-4 bosqichlar). Shuning uchun, kvartet sinfining dasturiy talablari barcha bosqichlarga bir xil belgilanadi. Kvartet sinfining repertuari har yili yangilanib turadi.</i></p> <p>II. Asosiy qism</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>Kirish</p> <p style="text-align: center;">IV-VIII semestrlar.</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. “Kvartet sinfi” faniga kirish</p> <p>Kvartet sinfi orkestr cholg‘ulari kafedrasining tayanch maxsus fanlaridan biridir. Kvartet sinfining bosh vazifasi, skripka, alt, violonchel ixtisosliklaridagi kabi yuqori malakali musiqachi-ijrochilarni tarbiyalashdan iboratdir. Kvartet sinfida o‘qish bakalavriat bosqichida to‘rt yil davom etadi: birinchi kursdan to‘rtinchi kursgacha, ya’ni sakkiz semestrni o‘z ichiga oladi. Kvartet sinfida o‘qish natijasida talabalar ansambl</p>			

ijrochiligi ko‘nikmalarini egallab, torli kamonli kvartet partiyalari funksiyalarining muhim xususiyatlarini o‘zlashtiradilar va turli davr hamda milliy kompozitorlik maktablari asarlarining ijro uslublari, o‘zbek kvartet adabiyoti bilan tanishadilar.

2- mavzu. Torli kamonli kvartet spetsifikasi

Torli kamonli kvartet o‘z spetsifikasiga ega bo‘lib, ansamblning boshqa turlaridan farq qiladi. Kvartet ansambli asosida to‘rt ovozli tovush to‘qimasi yotadi. Uzun tarixiy jarayon natijasida shakllangan to‘rt ovozlik musiqadan mustahkam o‘rin olib, tarbiyalangan eshitish qobiliyati orqali mutlaq ohangdosh butunlik sifatida qabul qilinadi.

3- mavzu. Kvartet ijrochiligining texnologik tomonlari

Ansambl, xususan kvartet ijrochiligidagi jarayon ijro va ifoda vositalaridan tashkil topadiki, ular ijrochilik va texnik usullar hamda ijro yo‘li orqali aniq aloqaga ega bo‘ladi. Kvartet san‘atini o‘zlashtirish jarayonida ifoda vositalarini egallash ko‘nikma va malakalari rivojlantiriladi, takomillashtiriladi. Ifoda vositalarining sifati u yoki bu texnik usulning egallanganlik darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘z navbatida tovush, ataka, shtrixlar, agogika, artikulyatsiya, iboralash kabi musiqiy ifoda vositalarining tovush etaloni teskari aloqa orqali ijrochilik vositalariga va shuningdek, texnik usullarni boshqarish sifatiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

4- mavzu. Kvartet ijrochiligining psixologik tomonlari

Kvartet ijrochiligining muhim muammolaridan biri kvartetdagi sheriklarning kasbiy va ruhiy idrokini, shuningdek, birgalikdagi ijrochilik jarayonida yuzaga keladigan o‘zaro ta‘sir etuvchi omillar xususiyatlarini o‘rganishdir.

5- mavzu. Vena klassiklari ijodida torli kvartetlar

Vena klassiklari torli kamonli kvartetni badiiy jihatdan serqirra, ko‘tarinki ma‘naviy mazmunga ega, o‘y-fikrlarning teran oqimini barcha murakkabliklari va kutilmagan jabhalari bilan ifodalashga qodir bo‘lgan janr sifatida tasdiqlaganlar. Albatta, klassik kvartetda janrli-maishiy obrazlarga ham joy topilgan, biroq bu erda ular bosh rolni o‘ynamaydilar. Bundan tashqari, bu obrazlar simfoniyadagiga nisbatan o‘zgacha, yo birmuncha nozik, yoki bir qadar keskin, harakterli yo birmuncha lirik tusda namoyon etilgan. Kvartetda simfoniyadagiga nisbatan opera bilan aloqalar kamroq seziladi, ya‘ni bu tinglovchida kamroq yoki ko‘proq konkret assotsiatsiyalar uyg‘otadi.

6-Mavzu. Y.Gaydn. №34-kvartet re major, op.20, №4

1772-yilda Y.Gaydn tomonidan yaratilgan oltita torli kvartet op.20, №№31-36larni o‘z ichiga oladi. Ular izlanish va eksperimentlar qirralari bilan tavsiflanib, ansambl ijrosida topilgan usullarning umumlashma tajribasini aks ettiradi. №32-kvartet do major,

op.20 №2da Y.Gaydn raqssimon menuetni namoyon etgan ikkinchi qismni romantik kompozitorlar F.Mendelson va I.Bramsning liriko-psixologik kaprichcholaridan avval og‘ir, vazmin Capriccio. Adajio bilan almashtiradi. F.Mendelson va I.Brams o‘zining qaysarligi, emotsional holatlarining o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turuvchi cholg‘u pyesalarining mazkur turiga moyil edilar.

7-Mavzu. Yozef Gaydn. №74-kvartet sol minor, op.74, №3

1793-yilda Y.Gaydn tomonidan yaratilgan oltita torli kvartet op.71 va op.74 №№69-74 kvartetlarni o‘z ichiga oladi. Ular Y.Gaydn kvartet san‘atining oliy cho‘qqisidir. Kompozitor birinchi va ikkinchi London safarlaridan so‘ng klassik kamer ansambli janrida alohida mukammallikka erishdi. Ular dadil kashfiyotlarga boy bo‘lib, o‘zining romantik ranglari va kayfiyatlarining shaffofligi bilan rom etadi.

8-mavzu. V.A.Motsart. №2-kvartet re minor. KV 421

1783-yilda V.A.Motsart tomonidan yaratilgan mazkur kvartet Y.Gaydn ga bag‘ishlangan torli kvartetlarning ikkinchisidir. U o‘zining obrazli tuzilishi bilan V.A.Motsart ijodining cho‘qqisi sanaladi. Shuningdek, o‘sha davr kamer musiqasida g‘ayrioddiy bo‘lgan asar ifodasidagi teranlik, kvartetning birinchi taktidanoq hayratga soladi va o‘zining drammatizmi, yorqin patetikasi bilan maftun etadi. Kvartet to‘rt qismli turkumni namoyon etib, uning qismlari ichki birlikni tashkil qiladi.

9-mavzu. Intonatsiya ustida ishlash

Intonatsiya ustida ishlashga repetitsion vaqtning katta qismi ajratiladi. Kvartet qatnashchilari tomonidan bir tovushning turlicha his etilishi intonatsion sof ijro borasida alohida qiyinchiliklar tug‘diradi. Kvartetning intonatsion birligiga hamkorlikdagi mashaqqatli mehnat jarayonida erishiladi. Bunda har bir ishtirokchining musiqiy eshitish va sheriklarni tinglay olish qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Kvartet ijrochiligidagi intonatsiya ustida ishlashda quyidagi savollar muhim sanaladi:

10-mavzu. Shtrixlar ustida ishlash

Shtrixlar kvartet ijrochiligining muhim komponentlaridandir. Shu bois asar bilan umumiy tanishuvdan so‘ng, ritm va dinamika anglab olingach, sur‘at aniqlangach kvartetchilar asarning har bir bo‘limidagi shtrixlar harakterini belgilab olib, shtrixlar ustida ishlashga o‘tishlari kerak. Muvaffaqiyatli topilgan shtrix ko‘p jihatdan u yoki bu jarang harakterini birmuncha ishonchli tarzda yoritishga yordam beradi.

Kamonli cholg‘u ijrosida qo‘llanilgan shtrix, mazkur badiiy o‘lcham bayoni uchun zarur bo‘lgan tovush natijasini beruvchi kamon harakatining konkret shaklini namoyon etadi. Shtrixlarning to‘rt guruhi mavjud: cho‘zimdor, ta‘kidlovchi, sakrovchi va aralash. Kvartet ijrosi davomida shtrixlar ustida ishlashda e‘tibor qaratish zarur bo‘lgan quyidagi

jabhalar muhim ahamiyat kasb etadi.

11-mavzu. Applikatura masalalari

Asarning musiqiy-ifodaviy tomonlari va musiqaning emotsional harakterini yoritish, tovushning mos keluvchi tembrini ajratib ko‘rsatish ko‘p jihatdan applikaturaga, uni to‘g‘ri tanlashga bog‘liq. Kvartetda applikatura tanlash asnosida har bir qatnashchi chap qo‘lining individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. Ansambl ijrochiligida applikaturaning yagona tamoyiliga amal qilish va bu bilan iboraning yagona nafasiga erishish juda muhim. Applikaturani to‘g‘ri tanlash, texnik jihatdan murakkab joylarni muvaffaqiyatli bartaraf etish uchun ham zarur. Applikatura ustida puxta o‘ylab ishlash kvartet ijrochiligining eng muhim komponentlaridan biridir.

12-mavzu V.A.Motsart. №2-kvartet re minor. KV 421

1783-yilda V.A.Motsart tomonidan yaratilgan mazkur kvartet Y.Gaydnaga bag‘ishlangan torli kvartetlarning ikkinchisidir. U o‘zining obrazli tuzilishi bilan V.A.Motsart ijodining cho‘qqisi sanaladi. Sh uningdek, o‘sha davr kamer musiqasida g‘ayrioddiy bo‘lgan asar ifodasidagi teranlik, kvartetning birinchi taktidanoq hayratga soladi va o‘zining drammatizmi, yorqin patetikasi bilan maftun etadi. Kvartet to‘rt qisimli turkumni namoyon etib, uning qismlari ichki birlikni tashkil qiladi.

13 mavzu. V.A.Motsart. №4-Kvartet si-bemol major. KV 458

V.A.Motsart tomonidan 1784-yilning kuzida yaratilgan mazkur kvartet Y.Gaydnaga bag‘ishlangan torli kvartetlarning to‘rtinchisidir. Kvartetning to‘rtta qismi ichki tuzilishi bilan ichki murakkab bo‘lib, ular o‘zaro badiiy birlikka mustahkamlangan. Birinchi qism Allegro assai vivace si-bemol major sonata shaklida yozilgan bo‘lib, emotsional holatlar rang-barangligi, obrazli olamning murakkabliklari va ziddiyatlari bilan tavsiflanadi. U shaffoflikka, extirosga, yorqin chirog‘ va quyosh koloritiga boy. Bunda shodlik tashkilotchi, hayot ijodkori va iroda dvigateli sifatida ta’sir qiladi. U – o‘zining qadimiyligi, samimiyligi va xiralanmagani bilan hayotning tug‘ilishini anglatadi. Asosiy mavzu Allegro quvnoq harakterga ega. U tonika uchtovushligining tovushlari bo‘ylab tuzilgan bo‘lib, o‘zining boshlang‘ich qiyofasi bilan voqelikka chaqiruv va shijoatni ta’kidlaydi:

14 mavzu. L.Betxoven. №1-kvartet fa major, op.18 №1

№1-kvartet fa major op.18 №1 L.Betxovenning 18-opusi tarkibiga kiritilgan oltita kvartetdan biridir. Bu opus 1798-yildan 1880-yilgacha ikki yil davomida yaratilib, Betxovenning yuqori mansabli rahnamolaridan biri, musiqa shaydosi va metsenat, o‘z simfonik orkestriga ega knyaz Frans Yozef fon Lobkovitsga bag‘ishlanadi. 18-opus kvartetlari yaqqol Gaydn va Motsart ta’siri ostida yozilgan. Ular ma’lum darajada

Motsartning Gaydnga bag‘ishlagan oltita kvartetining o‘ziga xos parallelidir. 18-opus kvartetlarida quvnoq obrazlar, yorug‘ optimizm va mayin dilkashlik ustundir.

15 mavzu. L.Betxoven. №9, №3-kvartetlar, do major. Op.59

Musiqachilar orasida “Qahramonlik” deya nom olgan mazkur kvartet o‘z harakteri bilan Uchinchi simfoniya yaqin. Haqiqiy simfonik kuch-qudrat va mahobatga erishgan final ayniqsa ajoyib. Bu kvartetda Betxoven kvartet janri tarixida ilk bor birinchi qismni vazmin muqaddima Introduction Andante son moto bilan boshladi, u ansamblchilar oldiga tovush qiyinchiliklari, ritmik va dinamik pauzalarga faol e‘tibor qaratish bilan bog‘liq bir qator ijrochilik vazifalarini qo‘yadi. Birinchi qismni ochib beruvchi, asosiy tonallikdan olis akkordlar sirli uyg‘unlik muhitiga g‘arq etadi:

16 mavzu. F.Mendelsonning torli kvartetlari

F.Mendelsonning yettita torli kamonli kontsertlari romantik mavzusi, obrazli doiralarning boyligi, kuyining go‘zalligi, musiqiy shaklining nafisligi bilan o‘ziga jalb etadi. Romantik tafakkur har bir qismning ichki mohiyatida namoyon bo‘ladi. Mutlaq texnik murakkablik, partiyalarning alohida yorqinligi va kvartetlar musiqasining virtuoz harakteri mavzuiylikning obrazli toifasi bilan o‘zaro uzviy bog‘langan.

F.Mendelson kvartetlari kompozitorning cholg‘u imkoniyatlaridan foydalanish borasidagi original ijodiy fantaziyasi sabab o‘ziga xos qiyofa kasb etgan. Ular ijrochilardan mos keluvchi ifoda vositalarini, ayniqsa rang-barang shtrixlarni izlab topishni talab etuvchi nafislik, nazokat va badiiy mahoratga boydir. F.Mendelson kvartetlari to‘rt qismli turkumlarni namoyon etadiki, ularda qismlar o‘rtasidagi mavzuiy bog‘liqlik va turkumning birinchi qismidan finalgacha bo‘lgan masofada rivojlanishning yagona dramaturgik yo‘li kuzatiladi.

17- mavzu. F.Mendelson. Kvartet mi minor op.44 №2

F.Mendelson butun umri davomida kamer cholg‘u ansambl musiqasiga intilgan. Bu uning ruhiyatiga birmuncha yaqin bo‘lgan ijod doirasidir. Kompozitorning kamer cholg‘u ansamblarida tabiiylik, samimiylik, ulug‘vor oddiylik va shaklning nafis tugalligi ustunlik qiladi. Ularda F.Mendelsonning ichki ma‘naviy hayoti, g‘oyalarining yorug‘ lirik hayolchanligi va orzumandligi, sho‘x skertsosimonligi-yu ertaknamo fantastikasidan dramatik keskinlikka, va hatto fojeaviy patetikagacha bo‘lgan rivoji aks ettirilgan

F.Mendelsonning ettita torli kamonli kontsertlari romantik mavzusi, obrazli doiralarning boyligi, kuyining go‘zalligi, musiqiy shaklining nafisligi bilan o‘ziga jalb etadi. Romantik tafakkur har bir qismning ichki mohiyatida namoyon bo‘ladi. Mutlaq texnik murakkablik, partiyalarning alohida yorqinligi va kvartetlar musiqasining virtuoz

harakteri mavzuiylikning obrazli toifasi bilan o‘zaro uzviy bog‘langan.

18- mavzu. F.Mendelson. Kvartet mi-bemol major op. 44 №3

Mazkur kvartet mazmunining teranligi, g‘oyasining jiddiyligi bilan ajralib turadi. Unda kamer ansamblarning janrli qirralari o‘ziga xos individual qiyofa kasb etadi. U cholg‘ulardan foydalanish borasida nafislik, nazokat, badiiy mahorat va original fantaziyaga boy. Kvartet to‘rt qismli turkumni namoyon etadi.

19-mavzu. XX asr chet el kompozitorlari ijodida torli kvartet

XX asrda kamer cholg‘u musiqasining, shu jumladan, kvartet janrining tarixiy roli jahon musiqa san‘ati rivojining avvalgi davrlariga nisbatan keskin o‘shishga erishadi. Milliy chegaralar diapazoni va unga mos tarzda kamer musiqasining o‘zida kuy, ritm va sharq xalqlari folklorining lad tizimi unsurlarini jamlagan “intonatsion lug‘ati” g‘ayritabiiy ravishda kengayadi. Ijodiy eksperimentlar o‘tkazish va nozik detallar izlab topish uchun keng imkoniyatlar taqdim etuvchi kamer janrlar, har bir cholg‘uning spetsifik tembr xususiyatlari individualizatsiyasi hamda tovush hosil qilishning yangi usullarini singdirish borasida egiluvchan va harakatchandir.

20-mavzu. D.Shostakovichning torli kvartetlari

D.Shostakovichning barcha janr va shakllarni qamrab olgan ulkan merosida torli kvartetlar muhim o‘rin egallaydi. Kompozitor XX asr kamer musiqasining eng muhim bo‘limlaridan birini tashkil etgan 15ta kvartetni yozgan. Seminar doirasida o‘rganish uchun quyidagi savollar ilgari suriladi:

O‘n uchinchi kvartet – Shostakovich kamer ijodining durdonalaridan biri. Uni kompozitor 1970-yilda yaratgan va ulkan iste‘dod, katta mahorat egasi, Moskva konservatoriyasi professori, yarim asr Betxoven nomidagi Kvartet tarkibida sahnaga chiqqan ajoyib altchi Vadim Borisovskiyni bag‘ishlagan. Ushbu kvartet shaklan va mazmunan bir qismli bo‘lib, uni poema deb atash mumkin. Kvartetda alt etakchi rol o‘ynaydi. Bu shunchaki kvartet leyttembri emas, balki sheriklari bilan birgalikda harakat qiluvchi o‘ziga xos bosh personajdir. Asarning birinchi va bosh mavzusi solo aynan altga topshirilganki, u musiqaning keyingi rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Cholg‘u partiyasining obrazli mazmuni boy, kuy borasida cheklanmagan. Alt torli trio bilan o‘zaro dialog olib boradi. Dialogsimonlik, uyg‘un ansamblning bo‘linishi mazkur asarning karakterli uslubiy qirrasidir.

21-mavzu. O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida torli kvartet

O‘zbekistonda torli kamonli kvartet dastlab XIX-XX asrlar mobaynida havaskorlik kontsertlarida yangradi. Torli kvartetlarning benazir a‘zosi harbiy kapelmeyster va etnograf Adolf Eyxgorn bo‘lib, u skripka, alt va violonchel chalar edi. Tarkibida Eyxgorn (birinchi skripka), Saharov (ikkinchi skripka), Aidov (alt), Nikitinov

(violonchel) bo‘lgan torli kvartet Toshkentda Vena klassiklari Gaydn, Motsart, Betxoven asarlarini ijro etar edilar. Kvartet musiqasining kontsertlari ko‘pincha kasbi vrach va ashaddiy musiqa ixlosmandi bo‘lgan Nikitinov uyida o‘tkazilar edi, bu kontsertlar ijtimoiy jarang statusiga chiqqan holda, tinglovchilarning keng doirasini, intellegentsiya namoyandalarini jalb etar edi.

22-mavzu. I.Akbarovning torli kvartetlari

Ikrom Akbarovning torli kvartetlari – kompozitor cholg‘u ijodiyotining muhim sohasi bo‘lib, uning atrofida cholg‘u tafakkurining madaniyati va murakkab ma’naviy hayot tasviri, subyektiv tuyg‘u va kechinmalarning ruhiy olamini shakllantiruvchi muallif qiziqishlari jamlangan. CHorak asr davomida yaratilgan oltita torli kvartet kompozitor musiqiy tafakkurning badiiy tadrijiyotini, kvartet janri sohasidagi tinimsiz izlanishlarini aks ettiradi.

23-mavzu. S.Varelasning torli kvarteti

1965-yilda Sovet Varelas tomonidan yaratilgan Torli kvartet o‘zbek milliy negizlariga egaligi, mavzu va kuy jihatdan boyligi, lad va ritmik harakteri, go‘zal tarzda cholg‘ulashtirilgani bilan ajralib turadi. Kvartet bir-biriga qarama-qarshi, ammo asarning ixcham va yaxlit kompozitsiyasini tashkil etuvchi uchta qismdan iborat. Kvartetning emotsionallik bilan yo‘g‘rilgan musiqiy obrazlarida hayot she’riyati ifodalangan: bu boy va rang-barang tarzda namoyon bo‘luvchi lirik kechinmalar olamidir.

24-mavzu. F.Yanov-Yanovskiyning Ikkinchi kvarteti

F.Yanov-Yanovskiy tomonidan 2009-yilda yaratilgan Ikkinchi torli kvartet 21-asr O‘zbekiston kamer cholg‘u ansambl adabiyotining eng ahamiyatli asarlaridan biridir. U o‘zining ta’sir kuchi ila tinglovchilarni hayratda qoldiradigan yorqin individual ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Unda lirik-falsafiy kayfiyatlar va tuyg‘ularning keng doirasi – teran mazmun, noyob lirika, yuksak oddiylik va fikrlar kontsentratsiyasi muhrlangan.

25-mavzu. A.Mansurov. Torli kvartet op.22

A.Mansurov o‘zining 1981-yilda yaratilgan op.22 torli kvartetida kamer-cholg‘u ansambl ijodiyotining harakterli qirralarini yoritgan – bu kuy nafasining kengligi, ovozlarning polifonik rivoji boyligi va musiqiy shaklning ixchamligidir. Asar uch qismli turkumni namoyon etadi, unda birinchi qism hajman boshqa qismlardan ustunlik qiladi. Uning mavzuiy materiali ikkinchi va uchinchi qismlarda rivojlantiriladi, bu esa asarga teran yaxlitlik baxsh etadi. Kvartet butkul polifonik. Kvartetni o‘rganish jarayonida ijrochilar badiiy obrazlarning polifonik rivojini his etishga, partituraning to‘rt qatlamli jarangidagi barcha tafsilotlarni o‘rganishga intilishlari zarur.

III. Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakl va mazmuni

(Ijodiy ishlari), (Konstert dasturi tayorlash), (konstert amaliyoti), (Mustaqil ta’lim)

Ushbu fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu – o‘rganilgan bilimlarni, amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy mashg‘ulotlarda:

- har bir mavzu yuzasidan kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etish;
- tinglovchiga ta’sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar repetitsiyalar, ijro talqinlari orqali sinab ko‘rish yaxshi natija beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari musiqiy yozuvlarini tinglab ko‘rish, tajriba repetitsiyalar vositasida o‘z ijodiy yoki ijro yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. D.Shostakovichning torli kvartetlari ijrosi
2. V.A. Mostartning torli kvartetlari ijrosi
3. L. Bokkerinining torli kvartetlari ijrosi
4. I. Gaydnning torli kvartetlari ijrosi
5. L. Betxovenning torli kvartetlari ijrosi
6. P.I. Chaykovskiyning torli kvartetlari ijrosi
7. A.Mansurovning torli kvartetlari ijrosi
8. B. Gienkoning torli kvartetlari ijrosi
9. I.Akbarovning torli kvartetlari ijrosi
10. S.A. Varelasning torli kvartet uchun syuitasi ijrosi

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangn auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlarda faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga

IV.Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. D.Shostakovichning torli kvartetlari konstert ijro uchun tyorlan
2. V.A. Mostartning torli kvartetlari
3. Torli kvartetlari ijrochilik ifoda vositalari va musiqiy shakl xususida tasavvurga ega bo‘lishi, ijroning u yoki bu ifoda vositalari bo‘lgan shtrixlar va usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligini asoslab berish
- 4 . Talabga mos dastur tanlash.

	<p>5. O‘zbekiston va chet el kompozitorlari torli kvartet asarlari ustida ishlash (kurs talablariga binoan).</p> <p>6. Torli kvartet asarning tahlili ustida ishlash (partiya ovozlari, vertikal).</p> <p>7. A.Mansurovning torli kvartetlari ijrosi</p> <p>8. Torli kvartet musiqiy-nazariy ma‘lumotlari</p> <p>9. Badiiy obraz, ijro xususiyatlari, dinamika, emotsional ifoda ustida ishlas.</p> <p>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan kvartet ijro dasturi tayyorlash va uni ijro qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3.</p>	<p style="text-align: center;">V. Ta’lim natijalari /Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba Davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishi nazarda tutiladi, xususan:</p> <ul style="list-style-type: none"> – kvartet sinfidagi shaxsiy ijodiy qobiliyatini o‘sishi; – malakaviy imkoniyatlarning kengayishi; – ansambl cholg‘u ijrochiligi xususiyatlari; – qadimgi davrdan boshlab hozirgi zamongacha mavjud bo‘lgan kvartet musiqa asarlari <i>xaqida tasavvurga ega bo‘lishi</i>; • turli uslubiyotga ega va turli davrga taalluqli kompozitor asarlarini; – G‘arbiy Evropa romantizm davri kvartet san’atiga tegishli kvartet uchun asarlar nota adabiyotlarini; – Akademik kvartet ijrochiligi maktabi uslublarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • kvartet ijrochiligi san’ati tarixi xususida fikrlar bildirish; <p>kvartet ijrochiligi san’ati rivojlanish jarayonlarni taxlil etish va tanqidiy baxolash <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.</i></p>
<p>4.</p>	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • yakka mashg‘ulotlar; • amaliy mashg‘ulotlar • Ijodiy dastur taqdimoti; • guruhlarda ishlash;
<p>5.</p>	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid ijrochilik, pedagogik va musiqiy jamoatchilik faoliyatiga nazariy va</p>

amaliy tayyorgarlik, keng va turli repertuarni bilish, torli kvartet ijro malakalarini o‘zlashtirish, mustaqil ravishda partiya ustida ishlash, torli kvartet ijrochiligining amaliy tajribasiga ega bo‘lishi, mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish. Oraliq va yakuniy nazoratlar fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda torli kvartet ijro dastur asarlarini tinglov orqali o‘tkazilishi mumkin.

Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar.

Talabalar bilimini nazorat qilish o‘quv rejaga muvofiq belgilangan. Oraliq va Yakuniy nazorat 4-8 semestrlarda o‘tkaziladi.

Sinov va imtihon talablari

1. Dasturlar yoddan ijro etiladi;
2. Har bir skripkachi 1-skripka partiyasini ijro etishi kerak
3. Ochiq konsertlarda ishtirok etgan talabalar kafedra mudirining taklifi bilan yarim yillik sinov yoki imtihondan ozod etilishi mumkin.

4chi semestr

Kvartet (klassik yoki romantik davr) – Gaidn, Motsart, Betxoven, Shubert, Mendelson

Oraliq nazorat

Kvartetning 2 qismi klassik yoki romantik davr

Yakuniy nazorat

Klassik yoki romantik davr kvarteti (Y. Haydn, A. Motsart, L. Betxoven,

1. F. Shubert, F. Mendelson).

5chi semestr

2 ta kvartetdan 2 tadan (talabalar tanlovida; har bir skripkachi 1-skripka partiyasini ijro etishi kerak);, klassik yoki romantik davr (Betxoven, Shubert, Mendelson)

Oraliq nazorat

Torli kvartet - xorijiy mualliflarning asarlarini taqdim etish tavsiya etiladi (masalan, Betxoven, Shubert, Mendelson)

Yakuniy nazorat

Ikki kvartet xorijiy mualliflarning asarlarini taqdim etish tavsiya etiladi (masalan, Betxoven, Shubert, Mendelson)

6chi semestr

2 ta kvartetdan 2 tadan (talabalar tanlovida; har bir skripkachi 1-skripka partiyasini ijro etishi kerak);, klassik yoki romantik davr (Betxoven, Shubert, Mendelson)

Oraliq nazorat

Torli kvartet - xorijiy mualliflarning asarlarini taqdim etish tavsiya etiladi (masalan, Betxoven, Shubert, Mendelson)

Yakuniy nazorat

Ikki kvartet xorijiy mualliflarning asarlarini taqdim etish tavsiya etiladi (masalan,

	<p>Betxoven, Shubert, Mendelson)</p> <p>7.8chi semestrlar</p> <p>Oraliq nazorat</p> <p>(Yakuniy dasturning 50 foizi)Ikki kvartet (talabalar tanlovi; har bir skripkachi 1-skripka partiyasini ijro etishi kerak); O‘zbekiston bastakorlari yoki xorijiy mualliflarning asarlarini (masalan, I. Akbarov, A. Mansurov, F. Yanov-Yanovskiy, A. Dvorjak kvartetlari) taqdim etish maqsadga muvofiqdir, B. Smetana, M. Ravel, K. Debussi, E. Griga, B. Bartok, P. Xindemit)</p> <p>Yakuniy nazorat</p> <p>Ikki kvartet (talabalar tanlovi; har bir skripkachi 1-skripka partiyasini ijro etishi kerak); O‘zbekiston bastakorlari yoki xorijiy mualliflarning asarlarini (masalan, I. Akbarov, A. Mansurov, F. Yanov-Yanovskiy, A. Dvorjak kvartetlari) taqdim etish maqsadga muvofiqdir, B. Smetana, M. Ravel, K. Debussi, E. Griga, B. Bartok, P. Xindemit)</p>
<p>6.</p>	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Turli mualliflar. Kvartetlar 1956-2025. (partitura va cholg‘ularning partiyalar) 2. Raaben L.N. Вопросы квартетного исполнительства. - Москва. 1998. (o‘quv qo‘llanma) 3. Davidiyan R. Квартетное искусство. М., 2014. (o‘quv qo‘llanma) 4. Imamov U. Kvartet sinfi T., 2016. (darslik) 5. A.Раимджанов Квартетный класс (Венская классика) учебное пособие Т. 2021. 6. A.Раимджанов КВАРТЕТ, учебник. Т. 2023 <p>Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. Sh.M.Mirziyoyev. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60. 28.01. 2022 8. Sh.M.Mirziyoyev. Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-4730 26.05. 2020 9. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-4038 28.11. 2018 10.T.A.Golovyants. O‘zbekistonning kamer instrumental ansambl musiqasi. T., 1982. 11.A.Gotlib. Ansambl texnikasini negizlari. M., 1960. 12.Maqolalar to‘plami: O‘zbekiston bastakorlari asarlarida interpretatsiya masalasi. T., 1981.

13. A.G. Gringof. O‘zbekistonda fortepiano, kamer va ansambl ijrchiligining tarixi. T., 1992.
14. K.X. Adjemov. «Kvartet ansambli» - pedagogika va ijrochilik. M., 1972.
15. Maqolalar to‘plami: Musiqachilarning professional o‘qitilishi masalalari. M., 1986.
16. Yanov-Yanovskaya N. Ikram Akbarov. T., 2011.
17. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-488 b.
18. Раабен Л.Н. Вопросы квартетного исполнительства. - Москва. 1960.
19. Микерина С. И. Некоторые вопросы репетиционной работы в классе струнного квартета. В сб.: Методические материалы по курсам камерного ансамбля и струнного квартета. Толуяттинский ин-т искусств. 2003 г.
20. Алексеев А.Д. Музыкально-исполнительское искусство конца XIX — первой половины XX века. В 2-х томах. Т.1.—М.: РАМ им. Гнесиных, 1995,-328 с: илл. 108
21. Бочкарёв Л. Л. Психология музыкальной деятельности. – М.: Издательский дом «Классика-XXI», 2006. – 352 с.
22. Давидян Р.Р. Квартетное искусство: Проблемы исполнительства и педагогики. – М.: Музыка, 1984.
23. Дегтяренко, Е. Квартетный мир Шостаковича: анализ всех струнных квартетов композитора/ Музыкальная жизнь. - 2008. - № 11. - С. 45-47
24. Долгов, П.Н. Смычковые квартеты Бетховена/ П. Н. Долгов ; ред. Б. Доброхотов. - М. : Музыка, 1980. - 197 с.
25. Камерный ансамбль. Педагогика и исполнительство / Ред.-сост. К. Х. Аджемов. – М.: Музыка, 1979. – 168 с.
26. Переверзев Н. Исполнительская интонация. М., Музыка, 1989, 208.
27. Синявская, Л. П. Струнный квартет в русской музыке: 1790-1860 годы. На исторических путях отечественной инструментально-симфонической культуры: научное издание/ Л. П. Синявская; Урал. гос. консерватория им. М. П. Мусоргского. - Екатеринбург : [б. и.], 2004. - 289 с.
28. Старчеус М.С. Слух музыканта. – М.: Моск. гос. консерватория им. П.И.Чайковского. – М., 2003. – 640 с.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali;
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;
3. Klasik notalar: <http://www.freesheetmusic.net/index.html>

	<p>4. Klasik partituralar: http://imslp.org</p> <p>5. Musiqiy portal (audio va video): http://classic-online.ru/</p> <p>6. Jazz musiqasi portali: http://www.jazzsound.ru/</p> <p>7. Nota kutubxonasi: http://nlib.org.ua/</p> <p>8. Musiqachilar uchun professional portal: http://fdstar.com/</p> <p>9. Musiqachilar uchun axborot portali "Orpheus": http://orpheusmusic.ru/</p> <p>10. Notalar va partituralar uchun qidiruv tizimi "Scorser": http://ru.scorser.com/D/Ноты.html</p> <p>11. Martin Shmidt notalari kutubxonasi: http://www.martin-schmid-blechblaesernoten.de/home.html</p>
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» <u>08</u> dagi <u>1</u> - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: D.P. Ovchinnikov - O'zDK "Torli cholg'ular" dotsenti</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Z.K. Zairov - V.Uspenskiy nomidagi RIMAL direktori B.T. Kurbanov - O'zDK "Torli cholg'ular" kafedrasini mudiri, professor</p>

